MAFKURAVIY TRANSFORMATSIYA DAVRI O‘ZBEK BADIIY KINOSIDA ZAMONDOSH OBRAZINING TIPOLOGIYASI

Niyazova Xafiza Xakimovna,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti
“Kino san’ati va audiovizual tadqiqotlar” bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi
Xafiza Niyazova* — *ORCID: https://orcid.org/0009-0006-7935-0071
E-mail: hafizaasal@gmail.com
Science ID: FTN-0726-0180

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki o‘n _____ (1991–2000-yillar) milliy kinematografiyada zamondosh obrazining shakllanishi, evolyutsiyasi va badiiy-psixologik talqini kompleks tahlil qilingan. Postsovet davridagi mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar sharoitida o‘zbek kinorejissyorlarining yangi qahramon konsepsiyasini yaratish borasidagi izlanishlari, mavzuviy-janriy xilma-xilligi hamda tasviriy-dramaturgik yechimlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda zamondosh obrazining ma’naviy-ruhiy inqirozlardan kelajakka ishonch bilan qarovchi, tashabbuskor tiplargacha bo‘lgan shakllanish bosqichlari shartli ravishda tipologiyalarga ajratib o‘rganilgan. Ayniqsa, ekranda qahramonlar xarakterini ochib berishda oila instituti va uning roli, milliy-diniy qadriyatlar hamda an’analarning badiiy aks etishi “Bir qadam o‘ngga, bir qadam so‘lga”, “Yuzsiz”, “Piyoda”, “Abdullajon”, “Bomba”, “Kichkina tabib” kabi xarakterli filmlar misolida batafsil tahlil qilinadi. Muallif 1990-yillar kinosidagi lirik-subyektiv tendensiyalar, majoziy-fantastik uslub va teatr dramaturgiyasi bilan integratsiya jarayonlarini ochib berib, zamondosh qahramonning milliy o‘zlikni anglashdagi va jamiyat ruhiyatini aks ettirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek kinematografiyasi, zamondosh obrazi, mafkuraviy transformatsiya, evolyutsiya, tipologiya, oila konsepsiyasi, milliy o‘zlik, fantastik komediya, ekran talqini.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются процессы формирования, эволюции и художественно-психологической интерпретации образа современника в национальном кинематографе Узбекистана в первое десятилетие независимости (1991–2000 гг.). В контексте постсоветских идеологических и социально-политических трансформаций исследуются поиски узбекских кинорежиссеров по созданию концепции нового героя, жанрово-тематическое разнообразие и изобразительно-драматургические решения. В работе типологизированы этапы становления образа современника — от духовно-психологического кризиса и депрессивных состояний до инициативных типов героев, устремленных в будущее. Особое внимание уделено роли института семьи, а также отражению традиционных и национально-религиозных ценностей в раскрытии характера экрана на примере таких фильмов, как «Шаг вправо, шаг влево», «Безликий», «Пеший», «Абдулладжан», «Бомба», «Маленький лекарь». Автор научно обосновывает роль кинематографа 1990-х годов в самосознании нации и отображении психологии общества через призму лирико-субъективных тенденций, гротескно-фантастического стиля и синтеза с театральной драматургией.

1. **Ключевые слова: узбекский кинематограф, образ современника, идеологическая трансформация, эволюция, типология, концепция семьи, национальная идентичность, фантастическая комедия, экранная интерпретация.**

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the formation, evolution, and artistic-psychological interpretation of the contemporary hero in Uzbek national cinema during the first decade of independence (1991–2000). Against the backdrop of post-Soviet ideological and socio-political

transformations, the paper examines Uzbek filmmakers' creative endeavors to establish a new hero concept, exploring thematic and genre diversity alongside visual and dramaturgical solutions. The study categorizes the development stages of the contemporary character — ranging from states of spiritual crisis and despair to proactive figures possessing confidence in the future. Particular focus is placed on the institution of the family as a crucial cinematic tool for character revelation, alongside the integration of national, moral, and cultural values, illustrated through landmark films such as “Bir qadam o‘ngga, bir qadam so‘lga”, “Yuzsiz”, “Piyoda”, “Abdullajon”, “Bomba”, “Kichkina tabib”. The author scientifically substantiates the significance of 1990s Uzbek cinema in shaping national identity and reflecting societal psychology through lyrical-subjective trends, allegorical-fantastic modes, and synergy with theatrical playwriting.

Keywords: Uzbek cinema, contemporary hero, ideological transformation, evolution, typology, family concept, national identity, sci-fi comedy, screen interpretation.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy kinematografiyada yangi g‘oya va mafkuraga asoslangan filmlar yaratish borasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Milliy madaniy o‘zlikni izlash, yangi qahramonlar qiyofasini gavdalantirish alohida ahamiyat kasb etdi. Mustaqilikkacha zamondosh qahramonlar ijtimoiy ishlab chiqarishda, ijtimoiy nohaqliklar yuz berayotgan vaziyatda o‘zini namoyon etgan bo‘lsa, 1990-yillardan boshlab ular oila fonida aks eta boshlagani muhim xususiyatlardan biri bo‘ldi. Oila nafaqat fon, shu bilan birga, to‘laqonli qahramonning qanday ekanini ifodalovchi vosita, qolaversa, o‘zi mustaqil ravishda oila obrazi sifatida ham gavdalana boshladi.

Endigina mustaqil bo‘lgan yurtda ekranda kimni zamondosh qahramon sifatida gavdalantirish masalasi kinoijodkorlarni jiddiy o‘ylantirib qo‘ygani rost. Shu bois filmlarda o‘tgan davr insonlari hayotiga “razm solish”, ularning ichki kechinmalari bilan “qiziqish” holatlari uchrab turdi. Ayrim zamondoshlar obrazi hayot yo‘li misolida yaqin o‘tmish haqiqatlari oshkor bo‘la boshladi. Filmlarda

horg‘inlik va tushkunlik kayfiyati hukmronlik qildi. Bir so‘z bilan aytganda, ekranda zamondosh obrazini badiiy ifoda etishda yangi davrga xos bo‘lmagan ruhiyat sezilib turdi [5; 35].

Shunday bo‘lishiga qaramay, 1991–2000-yillardagi badiiy-ijodiy jarayon keyingi yillarda vujudga kelgan yangi tamoyillar, mavzuviy-janriy izlanishlar va shakliy xilma-xillikning ekranda aks etishida o‘ziga xos takomil bosqichini o‘tadi. Rejissyorlar zamondosh obrazini yaratishda turli izlanish olib borgan bo‘lsalar-da, zamon bilan hamnafas qahramonni gavdalantirish masalasini hal etish oson kechmadi. Filmlarda o‘rta va katta yoshli, ruhan va ma’nan qiynalgan, shu bilan birga, o‘zgarayotgan zamondoshlar obrazi talqin etildi.

Qahramonlarning avvalgi 30 yillik davrda (1960–1990) o‘ziga xos evolyutsiyasi vujudga kelgan bo‘lsa, keyingi 30 yildan ortiq (1991–2026) vaqt mobaynida tamomila boshqa evolyutsiyasi yuzaga keldi. Aniqrog‘i, 1960–1990-yillarda ekranda yosh zamondoshlar obrazi ko‘p uchrardi. Biroq siyosiy-ijtimoiy evrilishlar pallasida, asosan, o‘rta va katta yoshli rejissyorlar ijod qilgani, yosh aktyorlar kamligi bois ekrandagi qahramonlar uning ijrochilari bilan deyarli tengdosh edi.

Mustaqillikning ilk o‘n yilligida filmlar boshqa yillarga nisbatan kam yaratilgan bo‘lishiga qaramay, ijodkorlarning izlanishlari shu davrga xos tendensiyalarni vujudga keltirdi. Xususan, o‘zbek kinosida yangi davrga moslashayotgan zamondosh obrazi gavdalana boshladi. Komediya janrida film yaratish shu davrda keskin ortdi. Ekranizatsiya asosida yangi qahramonlar ekranga olib chiqildi. Teatrda muvaffaqiyat qozongan zamondoshlar obrazi ekranga ko‘chdi. Ssenariy masalasi bo‘yicha yozuvchilar bilan hamkorlik mustahkamlandi. Jumladan, Tohir Malik, Sharof Boshbekov, Rixsivoy Muhammadjonov, Murod Muhammad Do‘st, Erkin A’zam, Usmon Azim, Anvar Obidjon, Xurshid Do‘stmuhammad kabi ijodkorlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, turli xarakterdagi zamondoshlar obrazi yaratildi.

90-yillarda ishlangan film qahramonlarining xususiyatlari, mazmun-mohiyati, mafkuraviy-g‘oyaviy ta’sir doirasiga ko‘ra shartli ravishda tipologiyalarga bo‘lish mumkin. Bu davrda yaratilgan ayrim zamondoshlar obrazi ruhiyatida tushkunlik, baxtsizlik, turmush tarzidan qoniqmaslik, oila a’zolari o‘rtasidagi konflikt, inqirozga olib boruvchi xatti-harakatlar, qahramonlar ichki olamida norozilik hissi sezilib turdi. Ekranda o‘z oilasida baxtga erisha olmay sarson va arosatda qolgan qahramonlar paydo bo‘ldi. Bunday zamondoshlar obrazi “Temir erkak”, “Ketma” va “Olov qa’ridagi farishta” kabi filmlarda o‘z aksini topdi.

Oilaning naqadar muqaddas ekani, uni mustahkamlash zarurligi kabi masalalarga aynan 1990-yillar boshida alohida e’tibor qaratildi. Shu bois oilada baxtli bo‘lishni istovchi qator qahramonlar vujudga keldi. Yuqorida ta’kidlanganidek, “Temir erkak”, “Ketma” va “Olov qa’ridagi farishta” filmlari qahramonlari oilada baxtsiz insonlar. Ular, aslida, oilada o‘z o‘rni, mavqeyi, baxti bo‘lishini chin dildan istaydi. Shu nuqtada zamondoshlar ruhiyatida tushkunlik, oiladagi ayrim kishilardan norozilik hissi yaqqol seziladi.

Bu davrda yana shunday zamondoshlar obrazi paydo bo‘ldiki, turmushning bor qarama-qarshiliklari, ijtimoiy tafovutlar, insoniyatga xos turfa xarakterlar majmuyi muayyan ekran asarlari orqali badiiy ifoda etildi. Bunday filmlarda qalban yolg‘izligidan azoblanayotgan inson obrazi o‘z aksini topdi. Aynan ziddiyatlar kesimida insoniyat ichki olamini kengroq mushohada etishga bo‘lgan urinishni “Bir qadam o‘ngga, bir qadam so‘lga”, “Yuzsiz”, “Piyoda”, “Yolg‘iz yodgorim” singari film qahramonlari taqdiri misolida kuzatish mumkin.

Bu o‘rinda obrazlar talqinida “ijobiy” yoki “salbiy”lik emas, aynan ularning ichki “men”i qay darajada shakllangani, dunyoqarashining keng-torligi, sabr-bardoshi o‘rtasidagi keskin farq, o‘y-xayollari, orzu-umidlarini qay yo‘sinda qaror toptirishdagi tafovutlar, ma’naviy olami, tafakkurining “boy” yoki aksincha, “qashshoq”ligiga urg‘u berilgani ahamiyatli. Aynan mana shunday film

qahramonlari orqali yangi zamondoshlar obrazi professional aktyorlar ijrosi orqali o‘zining badiiy yechimini topdi.

Yuriy Sobitovning Zulfiqor Musoqov ssenariysi asosida yaratgan drama janridagi “Bir qadam o‘ngga, bir qadam so‘lga” (1991) filmi qahramonlari – Baxtiyor (Karim Mirhodiyev ijrosida) va Sobirjon (Nabi Abdurahmonov ijrosida) taqdir taqozosiga ko‘ra, qamoqxonada jazoni o‘tashga mahkum insonlar. Filmda shaxs va jamiyat ijtimoiy munosabatlari orasidagi nomutanosibliklar markaziy o‘rin egallaydi. Bosh qahramon – Baxtiyor qat’iyatli, sabr-bardoshli yigit. Mahbus bo‘lsa-da, komil shaxs sifatida shakllanishidagi e’tiqodi uni tark etmaydi, aksincha, insoniylik xususiyati uning vaziyatida qo‘l keladi. Baxtiyor boshiga tushgan sinovni matonat bilan yengishga tayyor inson. Bu borada rejissyor qahramonning ichki olami naqadar pok ekanini ko‘rsatish maqsadida unga nisbatan qator ruhiy-ma’naviy umumlashmalar beradi.

Sobirjon esa Baxtiyorga mutlaqo zid obraz. U qanday bo‘lmasin, bu yerdan tezroq qochib chiqish yo‘llarini qidiradi. Uning sinovlarga bardoshsiz ekani, hiyla-nayranglar ishlatishi-yu boshqalarga qulluq qilishi kabi illatlari ma’naviy olami naqadar qashshoqligining belgisidir. Bunday ma’nan qashshoqlik o‘zining boshiga yetadi.

Shaxs va jamiyat, insonlar orasidagi o‘zaro qarama-qarshiliklar mazkur ekran asarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Bu borada tanlangan mavzuning yangiligi, badiiy asosning puxtaligi, qahramonlar xarakteridagi aniq chizgilar, voqealarning reallikka xosligi, konfliktlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi kabi mezonlar filmning umumiy mazmun-mohiyati va g‘oyasining to‘liq ochilishiga xizmat qilgan.

Ayniqsa, bu borada ikki xil tabiatli zamondosh obrazini yaratgan mahoratli aktyorlar ijrosi haqida alohida to‘xtalish joiz. Karim Mirhodiyev ijrosidagi Baxtiyor obrazi Nabi Abdurahmonov ijrosidagi Sobirjonning xatti-harakati va psixologik holatidagi o‘zgarishlar hisobiga yanada mukammal shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zaro qarama-qarshi xarakterli har ikki obrazning mohiyatan

ochilishida aktyorlar ijrosi bir-birini to‘ldirgan. Film ijodkorlarining maqsadi ularning nima sababdan qamalgani yoki kim haq-u kim nohaq ekanini aniqlash emas, balki insonlarning sinovli kunlarni qanday yo‘l bilan yengib o‘tishi muammosiga e’tibor qaratishdir. Shu o‘rinda inson xarakterining shakllanishida oilaning o‘rni nihoyatda katta ekani seziladi.

Film qahramoni Baxtiyor hamda Sobirjonning grimi va libosi alohida e’tiborga molik. Rassom-grimyor B.Temirov, liboslar bo‘yicha rassom N.Dobrina personajlarning ikki xil xarakterli inson sifatida gavdalanishida haqiqiy obraz yarata olganlar. Operator Temur Qayumov obrazlar ruhiy holatini namoyon etishda yirik plandan ko‘p bora foydalanadi. Bu o‘rinda har ikki aktyorning dramatik ijrosi mukammal yechimini topgan. Film nomidan ham ma’lum, inson sabr qilib, to‘g‘ri yo‘ldan ketishi yoki besabrligi sababli o‘zining boshiga yetishi mumkin. Qay tomonga qadam bosish esa uning ixtiyorida.

Rejissyor Isamat Ergashevning Sharof Boshbekov ssenariysi asosida yaratilgan “Yuzsiz” (1993) filmida hech kimga o‘xshamaydigan inson obrazi gavdalangan. Satirik komediya janridagi film bosh qahramoni – Begimqulning (Erkin Komilov ijrosida) nafaqat tashqi qiyofasi, shu bilan birga, ichki olami ham xunuk. Bu uning chin ma’nodagi inqirozi. Begimqulning xarakteri ko‘pchilikka yoqmaydi, boisi u yurgan yo‘lida kishilarning ko‘nglini olish o‘rniga, aksincha, diliga ozor berish, kamsitish, ziyon yetkazishga ko‘nikib qolgan. Ko‘rolmaslik, xudbinlik uning qon-qoniga singib ketgan. Eng yomoni, u o‘zidagi bunday salbiy illatlarni tan olmaydi, o‘zini doimo haq deb biladi.

Gazetada faoliyat yurituvchi Begimqul yangi xodima – Kumushni (Yulduz Hamidova ijrosida) ko‘radi-yu, uni rostdan sevib qoladi. Shundan so‘ng uning ichki olamida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi... Go‘zallik timsoli o‘z “dushmani” oldida tiz cho‘kmaydi, uning munosabatlariga parvo qilmaydi. Bundan g‘azablangan Begimqul “omadsiz” yuzini plastik operatsiya qildiradi, biroq bu bilan masala hal bo‘lmaydi. Chunki insonning tashqi qiyofasi o‘zgargani bilan uning ichki

ma’naviy olami turg‘un, eskilik sarqitidan xoli bo‘lmas ekan, bu uning tanazzuli bo‘lib qolaveradi.

Insonning jamiyat kishilari bilan munosabatlaridagi qarama-qarshiligi, o‘zaro nomutanosibligi zamiridagi ayrim illatlar mazkur zamondosh obrazida o‘zining badiiy ifodasini topgan. Bu borada, eng avvalo, badiiy asosning pishiqligi, obrazga mos aktyor tanlangani, uning professional ijrosi, rejissyorning obraz va xarakter yaratishdagi aniq pozitsiyasi, zamondoshning tashqi qiyofasini shakllantirishda grim ustasi Hamid Tojiyev, libos ustasi Galina Slobodyan mahorati tahsinga sazovor. Obrazni ssenariyda tasvirlanganidek ekranda gavdalantirishda ushbu omillarning barchasi muhimdir. Qolaversa, film operatori Shavkat Nurmuhamedovning bosh qahramonni murakkab obrazga aylanishida xizmati beqiyos.

Film nomi ko‘p ma’noni anglatadi. “Yuzsiz” atamasi asosiy qahramonning xunukligiga ishora bo‘lish bilan birga, uning xarakteriga nisbatan qo‘llanilgan umumiy ta’rif hamdir. Gap nafaqat qahramonning xunukligi, shuningdek, surbet, badxulqligi haqida hamdir. Begimqulning shu holga tushishiga kim aybdor? Uning umuman mehr ko‘rmagani, tashlandiq bo‘lib o‘sgani, xunuk chaqaloqdan onasi ham hazar qilgani, umuman, undan yuz o‘girgani jamiyat uni shu holga olib kelmadimi degan savolni o‘rtaga tashlaydi.

Erkin Komilov ijrosidagi Begimqul mazmun-mohiyatiga ko‘ra juda murakkab obraz. Uning ruhiy kechinmalarini tomoshabinga hayotiy tarzda yetkazib berish aktyordan katta mas’uliyat talab etgani aniq. Qahramonning o‘zi go‘zallik shaydosi, ammo uning siyratida ham, suratida ham bu ne’matdan asar yo‘q. Begimqul boshidan-oyog‘igacha, fikr-u xayolidan tortib orzu-umidlarigacha botqoqqa botib ketgan. Bunday yaramas illatli kishilar jamiyatda insonlar bilan qarama-qarshiliklarning asosiy sababchisi bo‘libgina qolmay, bevosita ishtirokchisi ham ekani achinarli. Bu kabi kishilar jamiyatda yashashi va ishlashi mumkin, ammo ularning o‘zi istagandek oilani barpo etishda turli muammolar kelib chiqishi tabiiy.

Ma’lumki, “Komediya orqali ijtimoiy hayotdagi... illat, yaramasliklar, nuqsonlar, ...kishilar faoliyatida yuz bergan xatolar, adashishlar, ularning xarakterlaridagi kamchiliklar – go‘llik, o‘jarlik, qo‘pollik, laganbardorlik, byurokratlik, poraxo‘rlik kulgi zaminida ochib tashlanadi va fosh qilinadi” [1; 179]. Sof komediya janrida murakkab xarakterli obraz yaratish mushkul. Shunday bo‘lsa-da, Sharof Boshbekov insonlar orasidan ekranga olib chiqilishi kerak bo‘lgan yangi zamondosh obrazi va u bilan bog‘liq voqeani topa olgan. Muhimi, bu intilish ijodiy guruh tomonidan to‘g‘ri anglangani holda, ekranda o‘zining betakror badiiy ifodasini topgan.

Rejissyor Rashid Malikovning Yusuf Roziqov ssenariysi asosida yaratgan “Piyoda” (Erkin A’zamning shu nomli hikoyasi asosida, 1997) filmi qahramonlari bir oilada tug‘ilib, ikki xil muhitda katta bo‘lgan aka-ukalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar haqida hikoya qiladi. Drama janridagi mazkur kartinada ular yuqoridagi film qahramonlari kabi jamiyatdagi zamondosh kishilar bilan emas, balki o‘z oilasidagi yaqini bilan konfliktga boradi. Aka-uka qahramonlar tabiatidagi, ma’naviy olamidagi bir-biridan keskin farq qondosh bo‘lishiga qaramay, boshqa-boshqa muhitda tarbiyalangani bilan izohlanadi.

Aka – Berdiboy (Muhammadiso Abdulxairov ijrosida) Munchog‘li qishlog‘ida tug‘ilib, shu yerda momosi qo‘lida ulg‘ayadi. Uka – Muzaffar (Rashid Malikov ijrosida) esa otasining kasbi taqozosiga ko‘ra, Toshkentga ketib, o‘sha yerda o‘qib, ota-onasi qo‘lida tarbiyalanadi. Aka-uka o‘rtasidan mehr ko‘tarilishiga yoshlikdan ikki xil muhitda yashaganliklari sabab bo‘ladi. Aka qalbida ukaga nisbatan ko‘rolmaslik hissi ildiz otadi.

Ruhiy-ma’naviy olami, fikrlash doirasi orasidagi tafovut sezilib turgan ikki xil dunyoqarashli zamondoshlar obrazi, eng avvalo, ssenariyda paydo bo‘lganini inkor etib bo‘lmaydi. Muhim falsafiy, hayotiy haqiqatlarni dadil ayta olgan obrazlarning jonli ifodasi ekranga operator Hamidulla Hasanovning betakror kadrlari orqali ko‘chgan.

“Bir qadam o‘ngga, bir qadam so‘lga”, “Yuzsiz” hamda “Piyoda” kartinalarida gavdalangan obrazlarning mushtarakligi shundaki, ularning har birida insonni teran anglash, uni ham tushunish, his etish muhimligi g‘oyasi ilgari surilgan. Shu bilan birga, inson tabiatan qanday bo‘lishidan qat’i nazar, oilasi bo‘lishi, yaqinlari davrasida baxtli hayot kechirishni istashi oydinlashadi.

Umuman, har bir inson ruhiy olamida o‘ziga xos ma’lum jarayonlar kechadi. Kishilar orasidagi farq o‘zaro munosabatga kirishilgandagina seziladi. Aniqrog‘i, turli mezonlar qolipiga mos kelmaydigan tafovutlar qarshisida insonning haqiqiy o‘zligi namoyon bo‘ladi. Aksariyat hollarda bosh qahramonning haqiqiy xarakteri ikkinchi plandagi obraz xarakteri tafovuti sababli yanada yorqinroq ochiladi. 1991–2000-yillarda ishlangan ko‘plab badiiy filmlarda aynan inson qalbini turfa zamondoshlar taqdiri misolida tadqiq etishga urinish va bu borada dadil qadam tashlangani e’tiborlidir.

Ayniqsa, Sobir Nazarmuhamedovning drama janridagi “Yolg‘iz yodgorim” (1998) filmi qahramoni Adash buva (Tojiboy Normatov ijrosida) obrazi orqali zamondosh qalbiga chuqur kirib borilgan. Oilada yolg‘iz qolgan keksa otaxon ko‘ngilsizliklarda insonlarni ayblamaydi, balki Yaratgan taqdiriga ko‘nadi va yagona farzandining o‘limiga sababchi bo‘lgan aybdorni kechiradi. Filmda Adash Karvonning ruhiy holati, kechirish yoki kechirmaslik o‘rtasidagi ichki kurashi o‘ziga xos tarzda kinematografik talqin qilingan. Bunda aktyorning professional ijro mahorati tahsinga sazovor.

Ilgari qahramonlar haqiqat uchun ochiqdan-ochiq kurashgan bo‘lsa, keyinchalik filmlarda mushohada qiluvchi inson obrazlari paydo bo‘ldi. Ya’ni tushkunlikka qarshi izlanish boshlandi. Xususan, Adash Karvon obrazi orqali azaliyat oldidagi yangicha qarashli zamondosh paydo bo‘ldi. Bu inson obrazini badiiy ifoda etishning yangi, yuqori pog‘onasi edi. Chunki zamondoshimiz Adash buva o‘ta sabrli va taqvoli inson bo‘lib, Haqqa ishonardi.

Umuman olganda, 1990-yillar boshida ekran yuzini ko‘rgan aksariyat film qahramonlari orqali insoniyatning ruhiy-ma’naviy olamiga chuqurroq kirib borila

boshlangani muhim jihatlardan biri bo‘ldi. Ayniqsa, hayotdan baxt va mazmun izlagan zamondoshlar aks etgan filmlar son jihatidan ortdi. Insonning o‘zi istagan baxtga erishishdek niyati hech qachon osonlikcha amalga oshmasligi, bu borada turli ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, kerak bo‘lsa, yo‘qotishlar bo‘lishini “Ko‘zlarim yo‘lingda”, “Dallol”, “Yulduzingni ber osmon”, “Tilla bola”, “Bomba”, “Sevgi”, “Chimildiq”, “Taqdir eshigi” filmlari qahramonlari taqdiri misolida kuzatish mumkin.

Mazkur film qahramonlarining niyati deyarli bir xil – o‘zi ko‘ngil qo‘ygan inson bilan oila qurib, baxtli yashash. Ana shu niyatga erishish yo‘lidagi azob-uqubatlar, kutilmagan voqea-hodisalar, ziddiyatlarning turfa ekani, rejissyorlarning bu boradagi izlanish va topilmalari ijodiy uslubning turli janrlarda taqdim etilishi bilan ajralib turadi. Muhabbat – necha asrlik mavzu. Bu borada hamisha yangicha yondashuv talab etilishi tabiiy.

Ssenariy muallifi va rejissyor Farhod Musajonovning drama janridagi “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1991) filmi qahramoni – kinomexanik Ozod (Mirzabek Xolmedov ijrosida) Shodiyaga (Fotima Rejametova ijrosida) ko‘ngil qo‘yadi. Biroq ota qizini boshqa yigitga turmushga beradi. “Poetik kino” an’analari asosida yaratilgan mazkur film qahramoni Ozod ziddiyatlarni yengib, o‘z maqsadiga erishadi.

Mazkur kartina operatorlar Abdurahim Ismoilov va Eldor Iskandarovning ijodiy izlanishi natijasida yuzaga kelgan go‘zal tasviriy olam, yosh qahramonlarning sof muhabbati milliy ruhda tarannum etilgani bilan boshqa filmlardan ajralib turadi. Shodiya obrazidagi bir qarashda sho‘x-shodon, hali bolaligi ham uni tark etib ulgurmagan qizni hayot bir zumda o‘z falsafasini mushohada qilishga undaydi. Film davomida ruhiy-ma’naviy olami sinovdan o‘tgach, dunyo va insoniyatga munosabati o‘zgargan zamondoshimiz – Shodiya endilikda mustaqil fikrlay boshlaydi. Ozod tushkunlik kayfiyatida yurgan kezlarida unga imom-domla duch keladi va tasalli beradi. Endilikda ekranda domla obrazi paydo bo‘ldi. Bu diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatning yorqin ifodasi edi.

“Ko‘zlarim yo‘lingda” va “Dallol” filmlari qahramonlari avval boshqa inson bilan taqdirini bog‘lagan bo‘lishiga qaramay, keyinchalik ularning hayotida yangi inson – chin muhabbat sohibi paydo bo‘ladi. Xususan, Bahodir Odilovning drama janridagi “Dallol” filmi (ss. mual. Zulfiqor Musoqov, Bahodir Odilov, 1992) qahramoni Dilorom (Dilorom Qambarova ijrosida) o‘z uyiga suv toshirib yuboradi. U qo‘shnilariga zarar yetkazgani uchun qarz to‘lash niyatida uyini sotuvga qo‘yadi. Bundan xabar topgan uy oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchi dallol Valijon (Rustam Sa’dullayev ijrosida) unga yordam bermoqchi bo‘ladi va kutilmagan vaziyatlarga duch keladi. Voqealar rivoji davomida dallol Diloromga ko‘ngil qo‘yadi va unga o‘z uyini topshiradi. Ayni shu paytda Diloromni og‘ir vaziyatda tashlab ketgan turmush o‘rtog‘i – Shuhrat (Hojiakbar Nurmatov ijrosida) paydo bo‘ladi. Ham uyi, ham muhabbatidan ayrilgan Valijon taqdirga tan beradi. Bir oilani saqlab qolish niyatida o‘z hislariga qarshi borib, jasorat ko‘rsatadi. Kompozitor Jamshid Izomovning qahramonlar ichki kechinmalarini tomoshabinga ta’sirchan yetkazishdagi ijodiy izlanish uslubi filmda o‘zining tugal yechimini topgan.

Isamat Ergashevning Sharof Boshbekov ssenariysi asosida yaratilgan “Tilla bola” (1994) filmi qahramoni – Rahmatilla (Sherali Hojiyev ijrosida) hamma ham nazariga ilmaydigan chiqindi tashuvchi yigit. Garchi u boshqalar qatori “toza” ishda ishlamasa-da, ko‘ngli, qalbi pok inson. Ijodkorlarning maqsadi ekranda kasbi, mavqeyidan qat’i nazar, har qanday insonning ko‘ngli borligi, ular ham sevib-sevilishga, o‘zi yoqtirgan jufti bilan oila qurib, baxtli yashashga haqli ekaniga e’tibor qaratishdan iborat.

Komediya janridagi “Tilla bola” filmi orqali dolzarb muammolar yumor va hajviya vositasida ekranga olib chiqilgan. Boshqa qahramonlardan farqli ravishda Rahmatilla juda kamtar, sofdil yigit. Undagi soddalik, ko‘ngilchanlik kabi insoniy fazilatlar ba’zan istaklariga erishishda g‘ov bo‘lsa-da, bundan tashvishlanmaydi, o‘zi tanlagan yo‘ldan qaytmaydi. U kimlargadir yaxshi ko‘rinish uchun o‘zidan zo‘r qahramon yasamaydi, uni boricha qabul qilishlarini istaydi. Rahmatilla mana shu jihati bilan boshqa zamondoshlar obrazidan farqlanib turadi.

Rejissyor Farid Davletshinning drama janridagi “Yulduzingni ber osmon” (ss. mual. Vali G‘ozi, A’lo Xo‘jayev, oper. Hotam Fayziyev, 1995) filmidagi bosh qahramon xonanda Malika obrazi (Dilorom Egamberdiyeva ijrosida) o‘zbek kinosi uchun yangi qahramon emas. Bundan avval ham o‘zbek ayolining san’atdagi mashaqqatli hayot yo‘li haqida film ishlangan. “Olov qa’ridagi farishta” qahramoni Nargiza Mansurovadan farqli ravishda zamondoshimiz – xonanda Malika o‘z xatolarini tushunib yetadi. Oilaning naqadar ulug‘ ekaniga amin bo‘ladi. Muhimi, u kech bo‘lsa ham turmush tarzini o‘zgartirish uchun o‘zida jasorat topadi. Har ikki film qahramonining ekranda hayotiy aks etishida aktyorlar ijrosining bir-birini boyitgani, shu bilan birga, qahramonlar ijodiy faoliyati muayyan san’atkorning repertuariga asoslangani muhim rol o‘ynagan.

Zulfiqor Musoqovning komediya janrida ishlangan “Bomba” (ss. mual. Z.Musoqov, Jahongir Qosimov, Abduxalil Mignarov, oper. Tal’at Mansurov, 1995) filmi qahramoni – zamondoshimiz Risolat (Asal Sharipova ijrosida) otasining maslahatiga quloq tutadi. Ya’ni o‘zi ko‘ngil qo‘ygan inson – harbiy yigit Rahimni (Rustam Sa’dullayev ijrosida) uchratgach, u bilan turmush qurishni ko‘ngliga tugadi. Avvaliga qiz Rahimni faqat tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutishi, umuman, boricha qabul qilib, yoqtiradi, ammo bu haqda hech kimga aytmaydi.

Risolat yashaydigan hovliga tushgan bombani zararsizlantirish maqsadida kelgan mutaxassis – Rahim uni orqalab borib, suvga uloqtirib portlatadi. Qanchadan-qancha insonlarning hayotini saqlab qolgan qahramonning suvdan omon chiqqanini ko‘rgan Risolat ahdida sodiq qoladi. Bu film orqali Mustaqillik davri o‘zbek badiiy kinosida ilk marta zamondosh qahramon paydo bo‘ldi. Rahim obrazi Rustam Sa’dullayevning boshqa personajlari singari o‘ziga xos koloriti, ko‘rki va mazmun-mohiyatiga ko‘ra mukammalligi bilan ajralib turadi.

Film voqealari oila fonida aks ettirilgan bo‘lib, unda o‘zbek xalqiga xos soddalik, hazil-mutoyibaga moyillik prinsipi ustuvorligi sezilib turadi. Ayniqsa, qahramonlarning komediya janri xususiyatiga mos monolog va dialoglari turli zamondoshlar xarakterlari majmuasini ekranda yarata olgani bilan ahamiyatli.

Shu o‘rinda aytish joizki, mustaqillikka erishilgach, zamondoshlarni yaratishda milliy o‘zlik, ya’ni an’anaviy qadriyatlarga murojaat etish boshlandi. Sovchilik udumi, quda-andachilik va qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratildi. Chunki mustahkam oilani barpo etishda ota-bobolarimizdan meros qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Qahramonlar qadriyatlarga tayangan holda, o‘zining istiqboli, kelajagi haqida mushohada qila boshladi. O‘zbekiston endi Mustaqil davlat deb e’lon qilingan kezlarda obraz yaratishda ma’lum qiyinchiliklar yuzaga kelgandi. O‘sha paytlarda kinoijodkorlar asosiy e’tiborni milliy o‘zlikni anglashga qaratdi. Bu borada aynan shu jihat orqali zamondoshlar ruhiyatida yangicha holatlar kuzatildi. Avvalgi davr qahramonlari adolatga ishongan bo‘lsa, endilikda ular o‘zbekona urf-odatlarga tayanib ish ko‘ra boshladilar.

Teatr san’atidan zavq olib, tajriba orttirgan kino ijodkorlar ssenariy tanqisligi muammosi vujudga kelgan kezlarda uning ko‘magiga tayangan holatlar ham uchrab turdi. Umuman, kino san’ati tarixida rejissyorlar zamondosh obrazini yaratishda teatr san’atida shuhrat qozongan, dolzarb muammolarni ilgari surgan spektakllarga murojaat etib kelgan.

Sharof Boshbekovning “Temir xotin”, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” hamda Erkin Hushvaqtovning “Chimildiq” pyesalari asosida turli yillarda badiiy filmlar ishlangan. Bu kabi ekran asarlarida qo‘shimcha qahramonlar paydo bo‘lganini kuzatish mumkin. Mazkur pyesalar asosida yaratilgan filmlarda o‘zbek xalqiga xos urf-odat va an’analar qatlamida davr muammolari aynan oila fonida ro‘y beradi. Asar qahramonlari ma’lum davrning zamondoshi ekani, qolaversa, badiiy jihatdan o‘ziga xos xarakterli obraz bo‘lgani uchun ular ekranda ham o‘z so‘zini dadil ayta oldi.

Jumladan, Erkin Hushvaqtovning teatrda anshlag bo‘lib, muvaffaqiyat qozongan “Chimildiq” pyesasidan ta’sirlangan kinorejissyor Melis Abzalov 1999-yili shu nomda maishiy komediya janrida badiiy film yaratgan. Voqealar, asosan, chimildiq fonida sodir bo‘ladi. Kino san’atining cheksiz imkoniyatlari sababli

voqealar ko‘lami spektaklga nisbatan biroz kengaytirilgan. Filmga qizning uyida bo‘lib o‘tgan marosimlar, “kelin salom” udumi singari qo‘shimcha epizodlar qo‘shilgan.

“Chimildiq” filmidagi kelin (Ra’no Shodiyeva ijrosida) va kuyovning (Said Muxtorov ijrosida) baxt va oila qadrini anglab yetishida Momo obrazining o‘rni beqiyos. Dramaturgik asosi puxta o‘ylangan mazkur sahna asarida ham, ekran asarida ham Dilbar Ikromova Momo obrazini maromiga yetkazib ijro etgan. Iste’dodli aktrisaning zimmasiga kelin-kuyovning o‘zaro til topishib, mustahkam oila barpo etishiga ko‘maklashish vazifasi yuklatilgan. Vaziyatdan chiqishda Momo turli tadbirlarni qo‘llaydi. Uning monolog va dialoglari, xatti-harakatlari, urf-odatlarni o‘z o‘rnida qo‘llashi filmning tomoshaviyligini yanada oshirgan.

Film voqealarining rivojlanish jarayonida chimildiq ikki yoshning hayotida qanchalik muhimligi qahramonlar dialoglarida ochiladi. Shu bois ijodkor so‘z o‘yiniga katta e’tibor qaratgan. Har bir dialog zamirida oilaning qanchalik muqaddas ekanligi g‘oyasi yotadi. Filmdagi syujet chizig‘i Momoning yumorga boy fikrlari bilan rivojlana boradi.

Spektaklda Madina Muxtorova ijrosidagi kelin tanti, erkatoy, latofatli personaj sifatida gavdalangan bo‘lsa, filmda Ra’no Shodiyeva ijrosidagi mazkur obraz lirik xarakterga ega. U o‘z orzulariga erishishni istaydi. Kuyovni yoqtirmasligi uning munosabatidan sezilib turadi. Chunki kinoda qahramonning yuzidagi o‘zgarishlar operatorning syomka jarayonida olgan kadrlari orqali tomoshabinga yaqqol ko‘rinadi. Bu borada operator Hotam Fayziyevning xizmati benihoya katta.

Mazkur pyesaning sahna hamda ekran talqinida rassom, grim va libos ustalari zimmasiga muhim vazifa yuklatilgan. Ijtimoiy mavzuning milliy ruhda namoyon bo‘lishida qahramonlar liboslarining rangi, ko‘rinishi, o‘z o‘rnida qo‘llanishi, qolaversa, xonadagi har bir detal muhim ahamiyatga ega.

Rejissyorning muvaffaqiyati oldiga qo‘ygan maqsadini tomoshabinga yetkaza olishidadir. Agar tomoshabin film qahramonini yaxshi ko‘rmasa, undan

o‘ziga o‘xshash jihatlarni topmasa, kinoning yashab ketishi qiyin. Ijodkorning iqtidori o‘z maqsadini film orqali ochib berishi va tomoshabin yuragiga kira olishida namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda teatrda anshlag bo‘lgan spektakllarning ekran talqini doimo muvaffaqiyat qozonib kelganini inkor etib bo‘lmaydi.

1991–2000-yillarda zamondoshlarni gavdalantirish borasidagi izlanishlar natijasida ekranda noyob qobiliyatli qator obrazlar ham paydo bo‘ldi. Abdullajon (“Abdullajon”), Tesha (“Masxaraboz”), Sodiq (“Yaratganga shukur”), Doniyor (“Kichkina tabib”) obrazlari shular jumlasidandir. Ayniqsa, Zulfiqor Musoqov filmlari bu borada muhim o‘rin tutadi. Uning tasavvuridagi qahramonlar yon-atrofimizda uchramasa-da, tomoshabin unga ishonadi. Chunki ijodkor ushbu to‘qima obrazlarni oddiy o‘zbek oilasi bag‘rida ko‘rsatadi. Qolaversa, ularga sof o‘zbek millatiga xos xarakter singdirilgan. Muhimi, uning personajlari betakror fazilat hamda noyob qobiliyatga ega sodda va samimiy inson ekani bilan ajralib turadi [5; 53-54].

“Abdullajon”, “Yaratganga shukur”, “Kichkina tabib” filmlari qahramonlari orqali o‘zbek xalqining bolajonligi, mehmondo‘stligi, beg‘uborligi kabi xislatlari ekranga boricha ko‘chdi. Rejissyorning bunday ijodiy izlanishi katta ekranda zamonaviy mavzuda xalqchil qahramonlarni gavdalantirish orqali tomoshabinga manzur filmlar yaratish tendensiyasini vujudga keltirdi. To‘g‘rirog‘i, tomoshabin Z.Musoqov filmlarini aynan zamondoshlar obrazi oila bag‘rida hayotiy talqin etilgani uchun qayta-qayta tomosha qiladi. Garchi uning filmlaridagi voqealar qaysi bir jihati bilan real hayotdagidek bo‘lmasa-da, qahramonlari yashayotgan muhitning zamonaviy jarayon bilan uzviy bog‘liqligi seziladi. Bu haqda kinoshunos Xanjara Abulqosimova shunday deb yozadi: “1991–1996-yillar kinosi aynan shu yillardagi real voqealar bilan kam bog‘langan. Bu yillar haqida gapirganda, ikkita film – “Abdullajon yoki Stiven Spilbergga bag‘ishlanadi” va “Tong otguncha” filmlari yodga keladi. Mazkur ikki asar fikrning jiddiyligi, syujetning g‘oyaviy mazmuni va kinematografik fazilatlari bilan ajralib turadi” [3; 5-6].

Zulfiqor Musoqovning “Abdullajon yoxud Stiven Spilbergga bag‘ishlanadi” filmi (ss. mual. Z.Musoqov, Rixsivoy Muhammadjonov, 1991) markaziy qahramoni Bozorboy (Rajab Adashev ijrosida) – oddiy dehqon. Fantastik komediya janridagi mazkur kartina qahramonlari bilan bog‘liq voqea-hodisalar tomoshabinni kuldirsa-da, filmning tag zamirida jiddiy masala yotgani seziladi. Go‘yoki asosiy qahramon Abdullajondek (Shuhrat Qayumov ijrosida) tasavvur uyg‘otadi, aslida, u filmda bog‘lovchi, voqeani rivojlantiruvchi asosiy kuch. O‘zga sayyoradan kelgan bola istehzo orqali beriladi. Davrning, jamiyatning va odamlarning dunyoqarashi, muammolari, tashvishlari esa Bozorboy obrazi orqali ochiladi. Filmda to‘g‘riso‘z, halol mehnat bilan farzandlarini voyaga yetkazib, uyli-joyli qilgan otaning hali oldinda bajarishi kerak bo‘lgan yumushlari ko‘pligi, o‘zbekning naqadar soddaligi, bolajonligi, oilaparvarligi va mehmondo‘stligi ulug‘langan.

Qishloqlarning birida yashaydigan oddiy dehqon Bozorboy o‘zga sayyoradan uchib kelgan bolakayni mehr bilan suyib, unga Abdullajon deb ism qo‘yadi. Bozorboy – bolajon, ochiqko‘ngil, mehribon inson. O‘zining 6 farzandi bor. Abdullajon esa uning 7-farzandiga aylanadi. Filmda o‘zga sayyoralik bolaning yerdagi sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Mehmondo‘st o‘zbek xalqi Abdullajonni xuddi o‘z farzandidek yaxshi ko‘radi. U esa bu yerdagi odamlarning mehriga yarasha javob qaytarishga, ularning daladagi mehnatini osonlashtirishga harakat qiladi. Film Sotiboldi Xudoyberdiyev nomidan hikoya qilinadi.

Avvaliga Bozorboyning ayoli Xolida xola (To‘ti Yusupova ijrosida) bola osmondan tushganiga ishonmaydi, ammo oradan hech qancha vaqt o‘tmasidanoq bolaga mehri tushib, uni o‘z o‘g‘lidek qabul qiladi. Onaning bolaga mehri toblanishi filmda ikki holatda o‘z yechimini topgan. Birinchisi – Abdullajonning onaga yaqin borib, dasturxon atrofiga o‘tirayotgan paytida yorug‘likning paydo bo‘lishi, ikkinchisi esa mehrning musiqa fonida original ifoda etilishida ko‘rinadi. Aynan mana shu musiqa film davomida bir necha bor takrorlanadi.

Ushbu ekran asarida noyob qobiliyatli Abdullajonning 10 xil mo‘jizasi o‘z aksini topgan. Operator Tal’at Mansurovning tarixga muhrlagan noyob kadrlari – Mustafoqulining sartaroshxonasidagi voqea, qozonda katta pul yasalishi, Boltaboyning armiyadan olib kelinishi, dalaga yomg‘ir yog‘ishi, ketmonlarning uchishi, tovuqlarning birdaniga ko‘p tuxum qo‘yishi, katta-katta sabzavotlarning yetishtirilishi, sigirning birvarakayiga ko‘p bolalashi, 3 tonnalik tarvuz va nihoyat, Xolmirzaning mashhur videomagnitofonlari kabi misli ko‘rilmagan mo‘jizalar fonida zamondoshlar tilidan juda ko‘p siyosiy fikrlar dadil aytilgan. “Tepadan” buyruq berilishi, oilalarda hamma narsa borligi, ammo baxt yo‘qligi, insonlar erkining o‘z qo‘lida emasligi, o‘zbeklarning daladagi mehnati, “tepadagilar”ning esa toza ofisda o‘tirib ishlashi va boshqa holatlar ekranga dadil olib chiqilgan. Endilikda jamiyatga foydasi tegadigan zamondoshlar obrazi kerak ekanligi filmda o‘zining tugal yechimini topgan.

Filmga ari obrazi ham kiritilgan bo‘lib, oddiy tomoshabin bunga e’tibor qilmasligi mumkin. Ari – ko‘plab zararli hasharotlarni yo‘q qiluvchi jonivor. Bu jihatdan u adolat uchun yovuzlikka qarshi kurash ramzi. Ko‘pgina xalqlarda ari donolik, o‘tkir aql, ayyorlik va epchillik ramzi hisoblanadi. Rais arini urib o‘ldirgani uchun ham uning ketmoni uchmaydi... [5; 56].

Ssenariy muallifi va rejissyor Zulfiqor Musoqovning komediya janridagi “Yaratganga shukur” (oper. Najmiddin G‘ulomov, 1997) filmi bosh qahramoni Sodiq Qurbonov (Rustam Sa’dullayev ijrosida) qurilish-montaj tashkilotida katta buxgalter bo‘lib ishlovchi zamondoshlarimizdan biri. U mo‘jizalarga sira ishonmaydi. Ammo keyinchalik u o‘zida mana shunday qobiliyat borligini tushunib yetadi. Choyxonada do‘stlari bilan gaplashib, ovqatlanib o‘tirgan Sodiqning stol ustidagi osh to‘la laganni birgina gapi bilan “uchirishi” voqeasi hammani hayratga soladi. O‘zidagi bunday noyob qobiliyat sababli bu qahramon hayotida ko‘plab kutilmagan hodisalarga duch keladi. Film bosh qahramon nomidan hikoya qilinadi. Abdullajon bilan o‘xshash jihati har ikki qahramon ham qobiliyatini faqat insonlarning oilada tinch-farovon yashashi uchun ishga soladi...

Ssenariy muallifi va rejissyor Zulfiqor Musoqovning fantastik drama janridagi “Kichkina tabib” (1998) filmi qahramoni Doniyor (Dilshodbek Kattabekov ijrosida) ham zamondoshlarimizdan biri. Film bolalar uchun ishlangandek tasavvur uyg‘otsa-da, aslida, kattalar va ular bilan bog‘liq turmush muammolariga bag‘ishlangan. Rejissyor bu borada ajoyib topilmadan foydalangan. Butun umrini boylik va mansab orttirishga bag‘ishlagan Shuhrat Shodmonovning (Murod Rajabov ijrosida) nabirasi Nigora betob bo‘lib qoladi. Shodmonov nabirasini davolatish uchun hamma narsaga tayyor. Shu maqsadda uyiga hattoki chet ellik professor-shifokorni ham olib keladi, ammo u qizning dardini yengillata olmaydi.

Onasidan ajralib qolishdan qo‘rqqan Doniyor Yaratganga iltijo qilib, uning tuzalishini so‘raydi. Ertasi kuni onasi oyoqqa turib, dardini unutadi. Kichik bolaning bunday qobiliyati butun qishloqqa tarqaladi. Ko‘p o‘tmay, Doniyorning xonadoniga davo istab keluvchilarning soni ortadi. Kichkina tabib haqidagi xabarni eshitgan bosh qahramon Shuhrat Shodmonov uni o‘z uyiga olib keladi. Lekin Doniyor qizni tuzata olmasligi, chunki bu xonadonda farishtalar yo‘qligini aytadi. Shundan keyin bobo o‘z xatosini tushunib yetadi.

Kattalar muammosini bolalar obrazi orqali ochib berish mazkur filmda o‘zining to‘laqonli ifodasini topgan. Tomoshabin bunga e’tibor qilmasligi mumkin, chunki Doniyor obrazi filmning asosiy qahramoni sifatida gavdalanadi. Bu uslub rejissyorning o‘ziga xos shaklni topa bilganining isbotidir. Aslida, bu eski shakl, biroq mavzu yangi ekani bilan ahamiyatlidir [6; 91].

Ushbu kartinada oila va jamiyatdagi ijtimoiy dolzarb muammolar ekranga olib chiqilgan. Doniyor Nigorani davolashda undagi dard bilan emas, balki jamiyatdagi illatlar bilan kurashish muhimligini aytadi. U qizaloqni davolash chog‘ida faqat o‘z manfaatlarini o‘ylaydigan insonlarga ham “tashxis” qo‘yadi.

Oddiy syujet asosiga qurilgan ushbu film tomoshabinda qiziqish uyg‘otadi. Biz bilmagan, anglamagan, to‘g‘rirog‘i, parvo qilmagan muammo kichkina bola obrazi orqali oshkor qilinadi. Doniyor bejiz o‘yinqaroq yoki oddiy bolalardek

qahramon emas, balki tabib qiyofasida gavdalanmagan. Chunki tabib bemorning dardini tabiiy usullar yordamida yengillashtira oladi.

Rejissyorning yutug‘i shundaki, u o‘z filmlarida g‘ayritabiiy, noreal voqealar, mo‘jizalar orqali real borliqdagi nozik masalalarga ishora qiladi. U shu usul bilan tomoshabinni o‘ziga yanada yaqinlashtiradi. Zulfiqor Musoqovning bu izlanishlari va mehnati javobsiz qolmadi. “Kichkina tabib” filmi 2000-yili “Artek” kinofestivalida munosib taqdirlandi. Ushbu kartina kino san’ati oldida turgan dolzarb muammo – kinozallardagi tomoshabin masalasiga ham yechim bo‘ldi. Aniqrog‘i, “Kichkina tabib” kinozallarga millionlab tomoshabinlarni jalb etdi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida yaratilgan filmlar tahlil qilinsa, Zulfiqor Musoqov qahramonlarida mo‘jizakorlik xislatlarini kuzatish mumkin. Bu ijodkor nafaqat mahoratli rejissyor, shu bilan birga, xalqchil obraz yaratish qobiliyatiga ega dramaturg hamdir. “Abdullajon”dagi Abdullajon ham, “Kichkina tabib”dagi Doniyor ham, “Yaratganga shukur”dagi Sodiq Qurbonov ham noyob iste’dod egasi. Ularning mushtarakligi ham ana shunda. Uchala qahramon noyob qobiliyatidan o‘z manfaati yo‘lida emas, yor-birodarlari, qo‘ni-qo‘shnilari, yaqinlarining tinchligi, osoyishtaligi, oilasining mustahkamligi, sog‘lig‘i va orzu-istaklarining amalga oshishi yo‘lida foydalanadi. Masalan, Abdullajon mehnatkash o‘zbek xalqining turmushdagi mushkulini osonlashtiradi. Doniyor boylik orttirish uchun emas, tabiblik qo‘lidan kelgani uchun bemorlarga shifo ulashadi. Sodiq Qurbonov esa do‘stlarining orzularini amalga oshirishda ko‘maklashadi. Ularning maqsadi noyob iste’dodini pullash emas, insonlarga chin baxt ulashishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, “90-yillar o‘zbek xalqi tarixiga murakkab sinovlar, ezgu intilishlar, hur orzular davri bo‘lib kirdi” [4; 110]. 1991–2000-yillar kino san’atidagi badiiy jarayonlar keyingi izlanishlar uchun muhim takomil bosqichini o‘tadi. Mavzu, janr va uslubiy izlanishlar chegaralari kengaydi. Zamondoshlar obrazi ushbu mezonlar asosida farqlanib turdi. 90-yillarda Isamat Ergashev va Zulfiqor Musoqov turli zamondoshlar obrazini yaratishda eng ko‘p izlangan

rejissyorlardan bo‘ldi. Ular, asosan, komediya va drama janrlarida filmlar yaratdilar.

“1991–1996-yillarda badiiy kinoning asosiy konsepsiyasi qahramonlarning ichki dunyosini chuqurroq ochib berishga qaratilgandi” [2; 264]. “Sevgi” filmidagi Abdurahmon ilk sevgilisi Salimaning kasallik tufayli vafot etganidan xabar topgach, uning yetim qolgan uch qizini o‘zi bilan olib ketadi. “Dallol”dagi Valijon esa o‘zi ko‘ngil qo‘ygan ayolni qiyin vaziyatdan olib chiqish uchun unga o‘z uyini hadya qiladi...

Qolaversa, bu davr kino hikoyachiligining lirik va subyektiv tendensiyalari o‘z rivojini topgan masal modellari va melodramatik syujetlarning ekranda aktuallashuvi bilan tavsiflanadi. “Yolg‘iz yodgorim” (rej. S.Nazarmuhamedov) filmida ekranda ijobiy va salbiy standart formulalari taklif etiladi, qahramon axloq va axloq koordinatalari bo‘yicha o‘rganiladi.

Bu davrga xos muhim jihatlardan biri qahramon konsepsiyasida ijtimoiylik aks eta boshladi. Zamondosh obrazining ekran talqini, xususan, inson ruhiy-ma’naviy olamini chuqur tadqiq etish, uning har tomonlama chuqur tahliliga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. Ekranda qahramonni tasvirlash, obraz va xarakterlar yaratish borasidagi yondashuv usullari takomillashib bordi, umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Eng muhimi, davlat tomonidan filmlar yaratish uchun alohida mablag‘ ajratildi. Bu – sohadagi yirik islohotlardan biri bo‘ldi.

90-yillar boshida ekranga yangi zamondoshlarni olib chiqish zarurati yuzaga kelgan davrda qahramonlarning oila fonida aks etishi, azaliy urf-odatlar, milliy va diniy qadriyatlarga murojaat qilinishi tufayli zamondoshlarning yangi vakillari – turli kasb egalari gavdalantirildi. Xususan, bu davrda turli rahbarlik lavozimlarida ishlovchi mansabdor kishilar (“Ketma”, “Piyoda”, “Kichkina tabib”), san’atning u yoki bu turini tanlagan insonlar (“Olov qa’ridagi farishta”, “Yulduzingni ber osmon”, “Temir erkak”, “Ko‘zlarim yo‘lingda”, “Taqdir eshigi”, “Fellini”), matbuot xodimi (“Yuzsiz”), harbiy (“Bomba”), hisobchi (“Yaratganga shukur”), chiqindi tashuvchi (“Tilla bola”), dallol (“Dallol”) kabi kasb egalarining badiiy

obrazi yaratildi. Dehqonlar (“Abdullajon”), qamoqdagi mahkumlar (“Bir qadam o‘ngga, bir qadam so‘lga”) obrazlari ham kino ijodkorlar e’tiboridan chetda qolgani yo‘q. Ayrim qahramonlarning kasb-hunari filmda mavhumligicha qoldirildi (“Masxaraboz”, “Yolg‘iz yodgorim”, “Sevgi”, “Chimildiq”) [5; 60].

Ekranda Yoqub Ahmedov, Erkin Komilov, Hojiakbar Nurmatov, Rustam Sa’dullayev, Murod Rajabov, Rajab Adashev, Karim Mirhodiyev, Furqat Fayziyev, Muhammadsoli Yusupov, Bahrom Matchonov, Baxtiyor Qosimov, Behzod Muhammadkarimov, Rustam O‘razoyev, Muhammadiso Abdulxairov, Mirzabek Xolmedov, Said Muxtorov, To‘ti Yusupova, Klara Jalilova, Gulchehra Jamilova, Gavhar Zokirova, Shohida Ismoilova, Yulduz Hamidova, Dilorom Egamberdiyeva, Dilorom Qambarova, Asal Xo‘jayeva, Fotima Rejametova singari, asosan, o‘rta va katta yoshli aktyor-aktrisalar turli zamondoshlar obrazini yaratdilar.

Rejissyorlar, asosan, drama va komediya janrlarida filmlar ishlashdi. Zamondoshlar obrazi orqali qator ijtimoiy-maishiy muammolar ekranga olib chiqildi. Badiiy filmlarda o‘ylab topilgan syujet va qahramonlar o‘z aksini topdi.

Avvaliga oilada o‘z baxtini topa olmagan tushkun kayfiyatli, arosatdagi qahramonlar paydo bo‘ldi. Keyinchalik oila va jamiyatda turli sabablarga ko‘ra o‘z o‘rnini topishga qiynalayotgan zamondoshlar yaratildi. Bora-bora qahramonlar o‘z baxtini topishga intila boshladi. Bu esa ular ruhiyatiga iliqlik olib kirdi. Zamondoshlar obrazini yaratishda insonlar turmush tarzi, oilaviy muammolarini yengillatishga yordam beruvchi noyob qobiliyatli qahramonlar gavdalantirildi.

Bir so‘z bilan aytganda, Mustaqillik davrida yaratilgan zamondosh obrazi timsolida izchil evolyutsiya mavjudligi va mazkur jarayon siyosiy-mafkuraviy omillar bilan bog‘liqligi sababli davr talablariga moslasha olmay tushkunlikka yuz tutgan obrazlardan tortib kelajakka ishonch bilan qarovchi, tashabbuskor qahramonlar tipologiyasi yuzaga keldi. Zamondosh obrazi, asosan, oila fonida gavdalangani sababli azaliy qadriyatlar va milliy an’analar muhitida talqin qilindi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Kino san’ati va audiovizual tadqiqotlar” bo‘limining ***“Zamonaviy O‘zbekiston kino san’atida tarixiy xotira reprezentatsiyasi”*** mavzusidagi tadqiqot ishi doirasida olib borilgan ilmiy o‘rganish davomida XX asrning 90-yillaridan boshlab ijtimoiy-ma’naviy hayotga demokratik qarash tamoyillarining kirib kelishi istiqlol yillarida adabiyot va san’at, xususan, kino san’atida millatning fidokor asl farzandlari, milliy qahramonlar, jonkuyar zamondoshlar, el ardog‘idagi insonlar haqida bor haqiqatni baralla aytish imkonini berdi. Bu Mustaqillik yillarida yaratilayotgan badiiy filmlarda davr ruhi, zamon nafasi, zamondoshlar xarakteridagi o‘ziga xos xususiyatlar, personajlarning psixologik holati, qahramonlarning umuminsoniy fazilatlarini milliy va diniy qadriyatlar, qolaversa, asrlar osha davom etib kelayotgan an’analar kontekstida, oila fonida yorqin ifodalashga bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib keldi. Zamondoshlar obrazini yaratishda milliy ruh va umuminsoniy fazilatlar mujassamligini mushtarak etish kabi tamomila yangilanish ko‘zga tashlandi. Umuman olganda, qahramon ruhiyatida oila konsepsiyasi va oila obrazi shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Abdusamatov H.** Drama nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr, 2000 – B. 179.
2. **Абул-Касымова Х.Н.** Художественное кино Узбекистана периода Независимости (1991–2004 гг). – Ташкент. – 2005. – М (К). А-17. № 264.
3. **Abulqosimova X.** O‘zbekiston san’ati tarixidan: Mustaqillik davridagi o‘zbek kinosi. 1991–2006-yillarda ishlangan badiiy va hujjatli filmlarning annotatsiyali filmografik katalogi. – T.: 2008. – B. 5-6.
1. **Karimova N.G‘.** 1960–90-yillar o‘zbek badiiy kinosida yosh qahramon obrazi: Diss. ... nomz. san’atshunos. – Toshkent: 1997. – 110 b.
2. **Niyazova X.X.** Badiiy kinoda zamondosh obrazi [Monografiya]. – Toshkent: “Science and Innovation” nashriyoti, 2025. – 232 b.

3. **Niyazova X.X.** Zulfiqor Musoqov filmlarida zamondoshlar obrazining o‘ziga xosligi // “O‘zDSMI Xabarlari”. № 4. 2022. — B. 90–93.